



PROBLEMS IN ADAPTATION OF TAX TERMS TO UZBEK TERMINOLOGY

Seitmatov Sarvar Ergash o'g'li

Sarvarseitmatov7@gmail.com

Graduate student of ToshDO'TAU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14699039>

ARTICLE INFO

Received: 14th January 2025

Accepted: 19th January 2025

Online: 20th January 2025

KEYWORDS

Terminology, tax area, term, appropriation, terms.

ABSTRACT

In Uzbek terminology, The article covers the terms of the tax industry, analyzing who has learned in what direction and in what order. Today we are talking about problems in mastering our language.

ПРОБЛЕМЫ АДАПТАЦИИ НАЛОГОВЫХ ТЕРМИНОВ К УЗБЕКСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Сеитматов Сарвар Ергаш ўғли

Sarvarseitmatov7@gmail.com

Аспирантка ТошДО'ТАУ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14699039>

ARTICLE INFO

Received: 14th January 2025

Accepted: 19th January 2025

Online: 20th January 2025

KEYWORDS

Терминология, налоговая, сфера, терминология, присвоение, термины

ABSTRACT

В статье будет проведен анализ, кто и в каком порядке изучал термины налоговой сферы в узбекской терминологии. Сегодня речь идет о проблемах овладения нашим языком.

O'ZBEK TERMINOLOGIYASIGA SOLIQ ATAMALARINING O'ZLASHTIRILISHIDAGI MUAMMOLAR

Seitmatov Sarvar Ergash o'g'li

Sarvarseitmatov7@gmail.com

ToshDO'TAU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14699039>

ARTICLE INFO

Received: 14th January 2025

Accepted: 19th January 2025

Online: 20th January 2025

KEYWORDS

Terminologiya, soliq sohasi, termin, o'zlashtirish, atamalar.

ABSTRACT

Maqolada o'zbek terminologiyasida soliq sohasi atamalarinig kimlar qaysi yo'nalishini va qanday tartibda o'rganganligi tahlil qilib o'tiladi. Bugungi kunda tilimizga o'zlashtirishdagi muammolar haqida so'z yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi



farmoni tilimiz va adabiyotimizning o'ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirishga qaratilgan. Ma'lumki, til ta'limida samara beradigan usullardan biri lug'at bilan ishlashdir. Bugungi kunda hech bir sohani lug'atlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Lug'atlarning turlari ham kundan-kunga ko'payib bormoqda. Shu bilan birga, terminologiya lug'atlarini tuzish sifatiga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki bunday lug'atlarni ma'lum ilmiy va amaliy tayyorgarlik ko'rmasdan, iste'moldagi atamalarni to'plamasdan va ularning kamchiliklarini o'rganmasdan, shuningdek, har bir soha tushunchalari chegarasini aniqlab olmasdan tuzish kutilgan natijani bermaydi.

Bugungi kun uchun muhim bo'lgan va davr taqozo etayotgan dolzarb masala - soha leksikasini, terminologiyasini o'rganishdir. Soha tilini, terminlarini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, terminlar tizimi rivojlangan adabiy tilning muhim belgisi hisoblanadi.

Dunyoda terminologik sistemalarni chuqur o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Fan-texnologiya taraqqiyoti, axborotlarning cheksiz oqimi insoniyat olamini tubdan o'zgartirib terminologik birliklar ko'paymoqda, sohaviy muloqotga kirishishga moyillik ortib bormoqda.

O'zbekistonda sodir bo'layotgan ulkan o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ilm-fan taraqqiyoti, boshqa davlatlar bilan olib borilayotgan yaqin ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tilimizda o'z ifodasini topmoqda. Jamiyat hayoti moliya-iqtisod tizimisiz rivojlanmaydi. O'zbekistonda iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanayotgan bir vaqtda soliq terminlarini o'rganishga ehtiyoj katta. Zero, «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonda: «...mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish»¹ muhim vazifalardan biri sifatida ta'kidlangan.

"Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganidan keyin tilimizda rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlar va iboralarning o'zbek tilidagi muqobillarini qo'llashga harakat qilindi. Shu tariqa ko'plab yangi atamalar paydo bo'ldi. Vaqt o'tgan sari sohaviy atamalar ham o'zgarib bordi." Ruscha-baynalmilal murakkab qo'shma terminlarning o'zlashishi. Hozirgi o'zbek terminologiyasi tizimida haddan ziyod miqdordagi ruscha-baynalmilal murakkab qo'shma terminlar qo'llanmoqda. Ushbu murakkab qo'shma terminlarning ma'lum qismi o'zbek tili tomonidan tayyor, asl holda o'zlashtiriladi: general-mayor, unter-ofitser, shtab - kvartira, samolyot-snaryad, pistolet—pulemyot, marsh-parad, radiometrrengenometr, shtab-kvartira va sh.k."² Bunday o'zlashmalar o'zbek terminologiyasining salmoqli ulushini tashkil etadi. Bu boradagi ishlarni o'rganishda f.f.d. Gulshan Asilovanning o'rni ham alohida hisoblanadi. U ilmiy maqolalarida quyidagi fikrlarni aytgan. "Rus tilidan o'girilgan so'zlarning barchasi ham tilda ommalashib keta olmadi, ayrimlari

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг —Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нufузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида||ги Фармони // <http://uza.uz/oz/documents/zbek-tilining-davlat-tilisifatidagi-nufuzi-va-mav-eini-tubd-22-10-2019>

² H.Dadaboyev. "O'zbek terminologiyasi" Yoshlar nashriyot uyi T- 2019 (b-116)



esa qisqa muddatda iste'moldan tushib qoldi. Chunonchi, "nav" (ассортимент o'rniga), "daromad-buromad, xazina" (бюджет o'rniga), "axborotlar majmui" (бюллетен o'rniga), "tekshiruv o'rasi" (досмотрима яма o'rniga), "bojxona yuk bayonnomasi" (bojxona yuk deklaratsiyasi o'rniga), "yo'lovchi bayonnomasi" (yo'lovchi deklaratsiyasi o'rniga), "tasniflagich" (классификатор o'rniga), "o'gracha" (кузов o'rniga), "tirkama" (прицеп o'rniga), "pishiq arqon" (трос o'rniga), "xorijga mol chiqarish" (экспорт o'rniga), "maxsus tekshiruv" (экспертиза o'rniga), "bojxona maskani" (bojxona posti o'rniga) kabi atamalarning ko'pchiligi mutlaqo qo'llanmayotganini, faqat ba'zilarigina juda sekinlik bilan o'zlashib borayotganini ("tirkama", "xazina", "nav") kuzatamiz³. Ushbu jarayon sohaga oid atamalar lug'atlarida ham o'z aksini topgan. G.G'ulomova o'zbek tilidagi yuridik terminologiyani tadqiq qilish jarayonida atamalarning turli muqobil ko'rinishlarini tartibga keltirish masalasini ko'taradi. Masalan, rus tilidagi контракт, договор, соглашение, сделка atamalarining o'zbek tilida shartnoma, bitim, kelishuv, biylashuv tarzida aralash ishlatilishi, xususan:

договор – shartnoma, bitim;

контракт – bitim, shartnoma, kelishuv;

соглашение – bitim, shartnoma;"

сделка – bitim, kelishuv, biylashuv ma'nolarida qo'llanishini qayd etadi. Mazkur atamalar o'rtasida jiddiy farq borligini ta'kidlab, ularni quyidagi tartibda ishlatishni taklif qiladi: договор – ahdnoma; контракт – shartnoma; соглашение – kelishuv; сделка – bitim. Sohaviy atamalarning tarjimasini bu tarzda asoslab berilmasligi, xususan, bojxona va soliq terminologiyasining ilmiy jihatdan tartibga keltirilmaganligi yuqorida ko'rsatib o'tilgan lug'atlarning ba'zilarida ularning tarjima qilinishida jiddiy xatolar borligini ko'rsatadi. Masalan: Aksiyadorlik jamiyati – акционерное общество Alternativ, qarama-qarshi narx – альтернативная цена Amal qilayotgan qonunchilik – действующее законодательство Bojxona tozalashi – таможенная очистка Bojxona tranzitdagi jarayon – процедура внутреннего таможенного транзита Bojxona chegarasini tashkil qilish – обустройство таможенной границы Bojxonadagi ta'minlashga manzur bo'lish – признание таможенного обеспечения Favquloddagi voqealarda – в исключительных случаях Nisbiy – относительно Bunday holatlar, fikrimizcha, lug'atlarni tuzishda avval rus tilidagi atamalarni tanlab olib, keyin ularni o'zbek tiliga tarjima qilish, so'ngra esa o'zbek tilidagi atamalarni 15 alifbo tartibida terib chiqish natijasida yuzaga keladi. shbu usulni inkor etmagan holda, tarjima qilishda juda katta e'tibor zarurligini ta'kidlash lozim. Bu kabi lug'atlar soha terminologiyasini o'z ichiga olar ekan, ularni tuzishda malakali, katta tajribaga ega mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash maqsadga muvofiq. Bojxona va soliq sohalariga oid lug'atlarda ko'plab qisqartma so'zlar (abbreviaturalar) uchraydi. larning deyarli barchasi rus tilidan tarjima qilingan bo'lib, amaliyotda ruscha qo'llanilgani tufayli, o'zbek tili mashg'ulotlarida ularni alohida sharhlab berish zarur. Masalan, KKDG ("нижка контроля доставки грузов") atamasi bojxona xodimlari nutqida ko'p qo'llaniladi, biroq ko'pchilik uning o'zbek tilida "YuEBNK" (yukni yetkazib berishni nazorat qilish kitobchasi) deb atalishini bilmaydi.

Bunday qisqartmalardan kasbiy muloqotda qo'llaniladiganlari talaygina:

AS – aAAT (agona avtomatlashtirilgan axborot tizimi);

³ G.Asilova.xalq ta'limi vazirligi ilmiy-metodik jurnali Toshkent-2016 (12-b)



AT – BK (bojxona ko'rigi dalolatnomasi);

KTS – BT (bojxona qiymatini tuzatish);

O – TSO (tashqi savdo operatsiyalari);

TN – TF TN (tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi);⁴

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, soliq sohasiga oid atamalarni chet tilidan o'zbek tiliga qabul qilishda va ularning terminologik lug'atlarini yaratishda katta tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb qilish zarur. Chunki, chet tilidagi (rus tili va ingliz tili) atamalar birmuncha mukammalroq hisoblanadi. Agar biz ushbu atamalarni mukammal darajada o'zbekcha muqobilini topmasak, bu atamalar til foydalanuvchilari tomonidan qabul qilinmaydi va o'sha eski variantini qo'llash davom etaveradi. Bu borada G. Asilovanning yuqorida keltirilgan fikrlar yaqqol misol bo'la oladi. Bundan tashqari bu atamalarni tarjima qilishda yana bir muhim jihatni unutmaslik kerak. Bu jihati ularni bexato tilimizga tarjima qilish. Bu jarayonda qatnashayotgan mutaxassislar orfografiya qoidalariga jiddiy e'tibor berishlari kerak bo'ladi, chunki, ular davlat hujjatlari hisoblanadi va qonunlar bilan mustahkamlanadi. Qonunlarda xatolar bo'lishi bu juda yomon holatdir. Bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun bu hujjatlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazish lozim. Bu mavzuda TOSHD O'TAU magistranti Azoda Beysenova "SOLIQ SOHASIGA OID NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARIDAGI LINGVISTIK MUAMMOLAR" mavzusidagi maqolasida so'z boradi. soliq xodimlari davlat qonunlarini shu davlat fuqarolariga to'g'ri tushun tirish, ularning o'z muddatida bajarilishini ta'minlash, davlatimizning tashqi aloqalarida ham konstitutsion huquqlarimizning buzilishiga yo'l qo'ymaslik borasida davlat va jamiyat o'rtasidagi asosiy vositachilar sifatida faoliyat yuritadilar.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг —Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармони // <http://uza.uz/oz/documents/zbek-tilining-davlat-tilisifatidagi-nufuzi-va-mav-eini-tubd-22-10-2019>
2. H. Dadaboyev. "O'zbek terminologiyasi" Yoshlar nashriyot uyi T- 2019
3. Madvaliyev A. Termin – terminologik lug'at – izohli lug'at // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2008. № 6.
4. G. Asilova. xalq ta'limi vazirligi ilmiy-metodik jurnali Toshkent-2016 (12-b)
5. G'ulomova G.Yo. O'zbek yuridik terminologiyasining istiqlool davri taraqqiyoti: Filol. fan. nom. ... dis. – T., 2005.
6. <https://lex.uz/docs/-5206072>
7. <https://lex.uz/ru/docs/-841978>
8. <https://lex.uz/docs/-5378966>

⁴ G'ulomova G.Yo. O'zbek yuridik terminologiyasining istiqlool davri taraqqiyoti: Filol. fan. nom. ... dis. – T., 2005.